

# MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH


Qo'llanmada zamonaviy ilmiy ma'lumotlarga muvofiq pedagogik amaliyotchi talabalarga qo'yilgan talablar va vazifalar, maktab va oliv o'quv yurtlari xodimlarning vazifalari haqida, o'quv xonalarini jihozlash, zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalar, talabalar tomonidan pedagogik amaliyot davri oxirida taqdim qilishlari kerak bo'lgan hujjatlar namunalari, xorij tajribasini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusning mohiyatini to'g'ri yetkaza berishga va amaliyotchining pedagogik amaliyot davrini to'g'ri o'tkazishiga qaratildi.

## Mualliflar haqida:

**SULLIYEVA Suluv Xurramovna** - qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, Termiz davlat universiteti botanika kafedrasи dotsenti.

**ZOKIROV Qurbanalijon G'aybullo o'g'li** - Toshkent davlat agrar universiteti 1-kurs magistranti.

**MAMADALIYEVA Madina Vahobjon qizi** - Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti o'qituvchisi.



Globe  
EDIT

Globe  
EDIT

FOR AUTHOR USE ONLY



SULLIYEVA Suluv · ZOKIROV Qurbanalijon ·  
MAMADALIYEVA Madina

# MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH

monografiya

**SULLIYEVA Suluv  
ZOKIROV Qurbonalijon  
MAMADALIYEVA Madina**

**MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA  
O'TKAZISH**

FOR AUTHOR USE ONLY



**SULLIYEVA Suluv  
ZOKIROV Qurbanalijon  
MAMADALIYEVA Madina**

**MALAKAVIY PEDAGOGIK  
AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA  
O'TKAZISH**

**monografiya**

FOR AUTHOR USE ONLY

## **Imprint**

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: [www.ingimage.com](http://www.ingimage.com)

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group

str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe

Printed at: see last page

**ISBN: 978-3-639-78105-2**

Copyright © SULLIYEVA Suluv, ZOKIROV Qurbonalijon,  
MAMADALIYEVA Madina

Copyright © 2021 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the  
OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**S.X. SULLIYEVA., Q.G'. ZOKIROV.,  
M.V. MAMADALIYEVA**

**MALAKAVIY PEDAGOGIK  
AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA  
O'TKAZISH**

*(monografiya)*

**2021-YIL**

## **MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH**

**Mualliflar: Sulliyeva.S.X., Zokirov.Q.G',, Mamadaliyeva M.V.**

Qo'llanmada zamonaviy ilmiy ma'lumotlarga muvofiq pedagogik amaliyotchi talabalarga qo'yilgan talablar va vazifalar, maktab va oliy o'quv yurtlari xodimlarning vazifalari haqida, o'quv xonalarini jihozlash, zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalar, talabalar tomonidan pedagogik amaliyot davri oxirida taqdim qilishlari kerak bo'lgan hujjatlar namunalari, xorij tajribasini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusning mohiyatini to'g'ri yetkaza berishga va amaliyotchining pedagogik amaliyot davrini to'g'ri o'tkazishiga qaratildi.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarga va o'qituvchilariga mo'ljallangan.

\*\*\*

В пособии рассмотрены требования и задачи педагогических работников в соответствии с современными научными данными, обязанности сотрудников школы и вуза, оснащение учебных аудиторий, изучение современных и передовых педагогических технологий, зарубежный опыт. Предоставляется следующая информация. Основное внимание в пособии уделяется подготовке уроков биологии, стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан, сути 5 важных инициатив, выдвинутых Президентом, и педагогической подготовке студентов. ориентированы на правильное проведение интернатуры.

Пособие предназначено для студентов и преподавателей высших учебных заведений.

\*\*\*

The manual contains information about the requirements and tasks of pedagogical practitioners in accordance with modern scientific data, the responsibilities of school and university staff, equipment of classrooms, study of modern and advanced pedagogical technologies, foreign experience. The following information is provided. The focus of the manual is on the preparation of biology lessons, the strategy of action for the further development of the Republic of Uzbekistan, the essence of the 5 important initiatives put forward by the President, and the pedagogical training of students. Focused on the correct conduct of the internship period.

The manual is intended for students and teachers studying in higher education institutions.

### **Taqrizchilar:**

**Termiz davlat universiteti**

**Boshlang'ich ta'l'm kafedrasи dotsenti,**

p.f.n X.Norbo'tayev

**Termiz davlat universiteti**

**Umimiyyet pedagogika kafedrasи mudiri dotsenti,** p.f.n M.Bozorova

## **KIRISH**

Pedagogik amaliyot o'qituvchi kadrlar tayyorlash tizimida muhim o'rinni egallaydi. U talabalarining oliv o'quv yurtlarida olgan nazariy bilimlarini ularning kelgusida maktabda amalga oshiradigan mustaqil faoliyati bilan bog'lovchi bo'g'imdir.

O'qituvchilik kasbini tanlagan har bir talaba maktabda o'tkaziladigan pedagogik amaliyotni zavq, ezgu umid va hayajon bilan kutadi. Talabalar maktabda pedagogik amaliyot o'tishga borganlarida hal qilinishi zarur, uncha oson bo'lмаган muammolarga duch keladilar. Chunonchi o'qituvchilikni endi boshlayotgan bu talabani o'qituvchilar qanday kutib olar ekan? Qanday qilib u mакtab o'qituvchilari bilan aloqa o'rnatishi hamda ularning ishonchini qozonishi kerak? Oliy o'quv yurtlarida olgan biologik, metodik va pedagogik bilimlari, hamda amaliy tayyorgarligi yetarli bo'larmikan? Umuman pedagogik amaliyot o'tishni uddalay olarmikan? Kabi masalalar shular jumlasidandir. Oliy o'quv yurtlari talabalarining maktabda pedagogik amaliyotni muvaffaqiyatli o'tishlari qator shart-sharoitlarga bog'liq. Bunda ularning oliv o'quv yurtlarida o'qish davrida olgan tayyorgarligi g'oyat muhimdir. Biroq o'qituvchilik kasbining ko'pgina sifatlari talabalarda faqat maktabda bevosita amaliyot o'tish davrida shakllanadi.

Talabalar pedagogik amaliyot davrida har doim tegishli o'quv metodik adabiyotga ehtiyoj sezadilar. Pedagogik amaliyot bo'yicha ayniqsa o'zbek tilida, o'quv metodik qo'llanmalarining yetarli emasligi talabalarining pedagogik kasbini egallahsha jiddiy to'siq bo'lmoqda, ularning maktabdagagi ta'lim-tarbiya ishlari metodikasining amaliy jihatdan o'zlashtirib olishlarini qiyinlashtirmoqda.

Mazkur qo'llanma anashu qiyinchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan. Uning maqsadi maktabda biologiyadan pedagogik amaliyotni muvaffaqiyatli o'tishda talabalarga yordam berishdir.

Qo'llanma pedagogik amaliyot to'g'risidagi yo'riqnomasi va dasturga, maktab biologiya dasturiga muvofiqlashtirilgan. Shuningdek,

qo'llanma matnining tuzilishi (strukturasi) ham ancha takomillashtirilgan. Pedagogik amaliyotning ahamiyati, maqsad va vazifalarini yoritish asosida shu amaliyotning bosqichlari bo'yicha mazmuni, tashkiliy masalalari olib berildi, amaliyot jarayonida talabalarning pedagogik faoliyatini unumli tashkil qilish va unga rahbarlik qilishning o'ziga xos tomonlari aniq misollarda o'z ifodasini topdi, biologiyada o'qitish metodikasining barcha sohalari bo'yicha nazariy yo'l yo'riqlarni pedagogik amaliyotga qanday tatbiq qilish to'g'risida tegishli maslahat va tavsiyalar berildi.

Bundan tashqari talaba pedagogik amaliyot davrida maktab o'quvchilarida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining mazmun va mohiyatini va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning muhim ahamiyat kasbe etishi haqida ko'nikmalarni shakllantirishlari uchun kerak bo'lgan ma'lumotlar keltirildi.

Qo'llanmada asosiy e'tibor o'quvchilarga ta'lim tarbiya berishning asosiy yetakchi shakli biologiya darslarini tayyorlash, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusning mohiyatini to'g'ri yetkaza berishga va amaliyotchini pedagogik amaliyot davrini to'g'ri o'tkazishiga qaratildi. Shuningdek, unda biologiya bo'yicha ekskursiyalar o'tkazish, darsdan va sinfdan tashqari ishlar tashkil qilish metodikasiga oid tavsiyalar ham berildi.

## **I BOB. PEDAGOGIK AMALIYOTNING AHAMIYATI, MAZMUNI VA TASHKILIY MASALALARI**

### **1.1-§. Pedagogik amaliyotning ahamiyati**

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarning pedagogik faoliyatga har tomonlama tayyorlash uchun ular chuqur va puxta bilimlar, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashning tashkiliy-metodik o'quv va ko'nikmalari bilan qurollantirishi kerak. Bunday tayyorgarlik o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Talabalarda o'qituvchiga xos xislatlar oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilar jamoasining katta ijodiy mehnati, mohir murabbiylarning butun ta'lif jarayonida talabalarga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sirlari va nihoyat talabalarning maqsadga yo'nalgan bilish faoliyati natijasida shakllanadi. Shuning uchun ham talabalarni professional-pedagogik jihatdan tayyorlash ishi oliy o'quv yurtlarida barcha fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini talabalarga o'qituvchiga xos sifat va xislatlarni shakllantirishga qaratilgan holda tashkil qilishini nazarda tutadi. Shunga erishish kerakki bo'lajak o'qituvchilar oliy o'quv yurtlarini bitirib maktabga borgach o'z pedagogik faoliyatlarini birinchi yildanoq ishonch bilan boshlay oladigan barcha ta'lif tarbiya ishlarini dadillik bilan amalga oshira oladigan bo'lsinlar.

O'zbekiston Respublika oliy va o'rta maxsus ta'limi ni takomillashtirish hamda qayta qurish ishi tayyorlanayotgan mutaxassislarning nazariy tayyorgarligida nisbatan yuqori talablar qo'yilishi bilan bir qatorda oliy o'quv yurtlari oldiga bitiruvchilarining amaliy tayyorgarliklarining ham g'oyat yaxshi bo'lishi talab qilinadi. Bu vazifa bo'lajak mutaxassislarni o'qitish davrida hayotga, ishlab chiqarishga yaqinlashtirish bu avvalo, talabalarning maktabdagi pedagogik amaliyotini kengaytirish va takomillashtirish demakdir.

Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining professional-pedagogik tayyorgarligini avvalo oliy o'quv yutlarida o'quv rejasida belgilangan fanlar bo'yicha o'tkaziladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda, keyinchalik esa amalga oshirish kerak.

## **1.2-§. Pedagogik amaliyotning tuzilishi**

Ko‘pgina pedagogika institutlarining ish tajribalarida pedagogik amaliyotning taxminiy tuzilishi qaror topdi. U o‘zida pedagogik amaliyotning tizimi, tashkil qilish shakllari va barcha amaliyotda qatnashuvchilarning ish usullarini aks ettiradi. Bu tuzilishda pedagogik amaliyotning borishi quyidagi izchilllikda bo‘lishi ifodalangan.

Ta’lim tarbiya ishlarini bajarish bo‘yicha bitirish oldi va kurs pedagogik amaliyotni odatda kirish konferensiyasi bilan boshlanadi. Bunda talabalarga ularning pedagogik amaliyot davomidagi vazifalari, ish mazmuni, qo‘yilgan talablar tushuntiriladi.

Pedagogik amaliyot o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki: ***tanishtiruvchi*** va ***faol*** qismidan iborat holda boradi.

Pedagogik amaliyotning tanishtiruvchi qismi uchun odatda uning birinchi haftasi ajratiladi. Bunda talabalar metodist va pedagogika kafedrasining vakili rahbarligida maktab bilan tanishadilar: ular uchun pedagogik amaliyotda bevosita qatnashuvchi maktab rahbarlari va xodimlarining suhbatlari tashkil qilinadi; talabalar sinflarga taqsimlanadilar, keyin hamma sinflarda biologiya va ikkinchi mutaxassislik bo‘yicha darslar, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni, o‘z sinflarida hamma darslarni, sinf rahbarlarining tarbiyaviy ishlarini kuzatadilar.

Pedagogik amaliyotning ikkinchi faol qismida talabalar dastur talab qilgan va individual kalendar rejalarida belgilangan ta’lim-tarbiya ishlarini bajarish bilan band bo‘ladilar. Chunonchi ular mutaxassislik fanlari bo‘yicha darslar, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkazadilar, sinf rahbari ishini bajaradilar, maktab bo‘yicha tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda qatnashadilar, o‘zaro darslar va boshqa mashg‘ulotlarga kiradilar, ularning muhokamasida ishtirot etadilar.

Bu paytlarda talabalarga metodik yordam berish maqsadida ular uchun pedagogik amaliyot rahbarlari individual va jamoaviy konsultatsiyalar o‘tkazadilar. Ko‘pgina pedagogika oliy o‘quv yurtlarida

talabalarning pedagogik amaliyotda metodik kunlar joriy qilingan. Bunda talabalar bilan birga metodistlar pedagogika va psixologiya kafedralarining vakillari, mutaxassisliklar bo‘yicha fan o‘qituvchilari, sinf rahbarlari qatnashadilar va haftaning yakunini muhokama qiladilar, navbatdagi vazifalarni belgilaydilar. Ba’zi oliv o‘quv yurtlari talabalarining pedagogik amaliyotda bu kengashda shu maktabga aloqador metodik masalalar ham muhokama qilinadi, pedagogik hamda metodik adabiyotdagi yangiliklar qarab chiqiladi.

Pedagogik amaliyot maktabining kichik pedagogika kengashida va institutdagi xotima konferensiyasida yakun chiqarish bilan tugallanadi. Pedagogika kengashida talabalar va pedagogik amaliyotda bevosita qatnashgan maktab xodimlari hisob beradilar, talabalar faoliyati baholanadi. Oliy ta’lim muassasalaridagi xotima konferensiyasida esa, pedagogik amaliyotning umumiy yakuni qarab chiqiladi, ayrim talabalarning ilmiy metodik ma’ruzalari muhokama qilinadi.

Bitirish oldi va bitiruvchi kurs talabalari bilan o‘tkaziladigan pedagogik amaliyotning asosiy mazmuni amaldagi yo‘riqnomasi va dasturda umumiylar tarzda ifodalangan. Biroq bu hujjatlarda talabalarni har bir mutaxassislik bo‘yicha o‘qituvchilik kasbiga o‘rgatishning o‘ziga xos tomonlari va aniq mazmunini belgilab olishni taqozo qiladi.

Talaba biologlarning pedagogik amaliyoti o‘zining mazmuni hamda tashkil qilinishi bilan farqlanadi. O‘ziga xos bu xususiyatlardan, avvalo, maktab biologiyasi kursining mazmuni uni o‘qitish metodikasi, biologiyani o‘qitishga maktab o‘quv rejasida ajratilgan vaqt miqdori bilan xarakterlanadi.

### **1.3-§. Pedagogik amaliyotning mazmuni:**

1. Talabalarning pedagogik amaliyot boshlanishiga bag‘ishlangan kirish konferensiyasida qatnashish;
2. Maktab bilan umumiylar tanishish, talabalar uchun maktab rahbarlari, bolalar va yoshlar tashkilotlari yetakchilarining suhabatlarini o‘tkazish;

- 3.** Mutaxassisliklar bo‘yicha maktabdagi o‘quv-moddiy baza bilan tanishish;
- 4.** Amaliyotchi talabalarning sinflarga taqsimlanishi va amaliyot davomida mutaxassislik fanlari bo‘yicha amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlari mavzularini belgilab olishlari;
- 5.** Biriktirilgan sinf va undagi o‘quvchilar jamoasi bilan tanishish; mutaxassisliklar bo‘yicha fan o‘qituvchilari va sinf rahbarlarining ish tajribasini o‘rganish; amaliyot davomida bajariladigan tarbiyaviy ishlar mavzusini belgilab olish;
- 6.** Mutaxassislik bo‘yicha o‘qituvchi o‘tadigan darslar, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni kuzatish hamda ularning muhokamasiga qatnashish;
- 7.** Sinf rahbari olib borayotgan tarbiyaviy ishlarni kuzatib borish va ularni tahlil qilish;
- 8.** Yuborilgan maktabda pedagogik amaliyot o‘tish bo‘yicha shaxsiy kalendar reja tuzish va uni amaliyot rahbarlaridan tasdiqlatib olish;
- 9.** Mutaxassislik fanlari, jumladan biologiya bo‘yicha talabalarning har xil tipdag‘i darslarni tayyorlash va o‘qitish;
- 10.** Amaliyotchi talabalarning biologiya va ikkinchi mutaxassislik bo‘yicha har xil darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarini tayyorlash va amalga oshirish, jumladan o‘qituvchilarning darsdan tashqari kuzatish va tajriba o‘tkazishlarini tashkil qilish, sinfdan tashqari o‘qishlar tashkil qilish;
- 11.** Sinf rahbari rejasi asosida tarbiyaviy ishlar olib borish;
- 12.** Amaliyotchi talabalarning o‘z o‘rtoqlari darslarini, darsdan va sinfdan tashqari ishlarini kuzatish hamda ularning muhokamasida qatnashish;
- 13.** O‘rtoqlarining sinf rahbari sifatida va mакtab bo‘yicha bajaradigan tarbiyaviy ishlarini kuzatish va ularning tahlilida qatnashish;

- 14.** Amaliyotchi talabalarning ota-onalari bilan tegishli ishlar olib borishi;
- 15.** Amaliyotchi talabalarning dars yoki biror boshqa ta’lim-tarbiya mashg‘ulotini psixologik jihatdan tahlil qilish;
- 16.** Maktab gigiyenasi bo‘yicha tegishli topshiriqlar bajarish;
- 17.** Maktab bo‘yicha amaliyotchi talabalarning navbatchiligi;
- 18.** Pedagogik amaliyotga bag‘ishlangan metodik kengashlar o‘tkazish va ularda amaliyotchi talabalarning faol qatnashish;
- 19.** Amaliyotchi talabalarning butun amaliyot davomida tegishli hujjatlarni talabalar saviyasida yuritib borishlari;
- 20.** Pedagogik amaliyot oxirida o‘tkaziladigan yakuniy konferensiyada barcha talabalarning faol ishtirok etishlari.

Amaliyotchi talabalarning IV kursda o‘tkaziladigan pedagogik amaliyoti o‘z ichiga IV kurs amaliyotchilarining ishlarini oladi. Biroq undan mazmunning bir qator murakkabligini va ish hajmining ortganligi bilan farq qiladi. Chunonchi, bu amaliyot yuqorida sanab o‘tilgan ishlarga qo‘srimcha holda quyidagilar amalgaga oshiriladi:

- 1.** Amaliyotchi talabalarning biologiya bo‘yicha fakultativ mashg‘ulotlar o‘tkazish metodikasi bilan tanishishlari va shunday mashg‘ulotlarni namuna tarzda o‘tkazishlari;
- 2.** Amaliyotchi talabalarning o‘quvchilari kasb tanlashga yo‘naltirish bo‘yicha ish bajaradilar;
- 3.** Maktab bo‘yicha ta’lim-tarbiya yo‘nalishidagi tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazishda faol ishtirok etish;
- 4.** Amaliyotchi talabalarning ota-onalar o‘rtasida olib boriladigan pedagogik targ‘ibotda faol qatnashish va ota-onalar yig‘ilishini o‘tkazish;
- 5.** Amaliyotchi talabalarning biologiya bo‘yicha metodik birlashma hamda pedagogika kengashi majlisida qatnashishlari.

IV kurs pedagogik amaliyoti ma’lum darajada stajiyorlik yo‘nalishida o‘tkaziladi, unda talabalar asosan (IX-XI) sinflarda

biologiya o‘qituvchisi va sinf rahbari rolida o‘zlariga topshirilgan barcha ta’lim tarbiya ishlarini mustaqil amalga oshiradilar.

Shunday qilib, yuqorida pedagogik amaliyot mavzulari to‘liq yoritildi. Endi bevosita talabalarning amaliyotda olinadigan metodik tayyorgarlik masalalariga qarab chiqamiz.

Pedagogik amaliyotning birinchi haftasida talaba biologlar tanishish zarur bo‘lgan sohalar qatorida mакtabda biologiya o‘qitishning moddiy texnika bazasini qarab chiqish ham muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, mакtab biologiya xonalari va uning jihozlari bilan tanishish talabalarga o‘zлari kelgusida o‘tadigan darslari va boshqa mashg‘ulotlari uchun tabiiy va tasviriy vositalarni hamda didaktik tarqatma materiallarini oldindan aniqlab olishga imkon beradi. Bu zarurat shuni taqozo qiladiki, ko‘p mакtablarda hamon to‘liq jihozlangan biologiya xonalariga ega emaslar. Binobarin, talabalarning bo‘lajak darslari uchun yetishmagan ayrim jihozlarni o‘quvchilarni jalb qilgan holda o‘zлari yasashlari tarqatma materiallari tayyorlashlari kerak bo‘ladi. Bunday ishlar biologiya bo‘yicha pedagogik amaliyotning talablaridandir.

Shundan keyin talabalarga mакtabning o‘quv-tajriba maydoni, parnik issiqxona xo‘jaligi, tirik tabiat burchagi bilan tanishishga taklif qilinadi. Bu ish pedagogik amaliyot davomida ulardan talabalarning darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda unumli foydalana olishlari uchun amalga oshiriladi.

Birinchi hafta ichida talabalar, shuningdek, mакtab kutubxonasi ham tanishishlari kerak. Bunda ular biologiya bo‘yicha kutubxonadagi kitob fondi nimalardan iboratligini, qanday jurnal va gazetalar borligini, bu manbalarning qaysilaridagi qo‘srimcha adabiyot sifatida hamda o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishlari uchun foydalanish mumkinligini aniqlaydilar.

Pedagogik amaliyotning birinchi kunlari mакtab biologiya o‘qituvchisining va tajribasini o‘rganish maqsadida talabalar uning darslariga kiradilar. Bunda dars jarayonidagi o‘qituvchi va o‘quvchilar

faoliyatini maqsadga yo‘nalgan holda kuzatish va tahlil qilish g‘oyat katta ahamiyatga ega.

Pedagogik amaliyot to‘g‘risidagi yo‘riqnomalarning birinchi hafta ichida o‘zi biriktirilgan sinfda mutaxassislikdan boshqa fanlar bo‘yicha darslarga kirishini nazarda tutadi. Biroq ular mutaxassisliklari bo‘yicha boshqa fanlardagi darslarga ham kirishlari kerak. Masalan, biologiya bo‘yicha boshqa sinflardagi darslarga kirish bilan talabalar shu fanning o‘qitilish ahvoli va xususiyatlari bilan to‘laroq tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Pedagogik amaliyotning birinchi haftasi davomida talabalarning biologiya bo‘yicha darsdan va sinfdan tashqari ishlar bilan tanishishlari zarur talablardandir. Talabalar o‘quvchilarning mакtab o‘qituvchisi tomonidan tirik tabiat burchagida, parnik issiqxonada xo‘jaligida, o‘quv tajriba uchastkasida majburiy darsdan tashqari mashg‘ulotlarni, shuningdek yosh tabiatshunoslar to‘garagi ishini kuzatadilar. Chunki bu ishlarni ular amaliyotning keyingi bosqichida davom ettirishlari kerak bo‘ladi.

Biologiya bo‘yicha pedagogik amaliyotning asosiy mazmuni talabalarining har xil tipdagi, xilma xil metodlar hamda metodik uslublar qo‘llash va tirik obyekt, tirik pereparatlashtirilgan ko‘rgazmali qurol, tarqatma materiallar kabi vositalardan foydalanish bilan o‘tkaziladigan darslarni tayyorlash va o‘tishlari, o‘z o‘rtoqlari darslarini kuzatish, ularning muhokamasida qatnashishini tashkil qiladi.

Shuningdek, talabalarning biologiya bo‘yicha o‘quvchilar bilan darsdan va sinfdan tashqari ishlar tashkil qilishlari, ularning o‘zarobor muhokama qilishlari ham pedagogik amaliyotning muhim qismidir. Pedagogik amaliyot dasturi talabiga ko‘ra bitiruv oldi kurs talabalari ikki xil sinflardan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkazishlari; yosh tabiatshunoslar to‘garagi ishiga rahbarlik qilish va biologiya bo‘yicha tematik kechalar tashkil qilishda yaxshiroq qilishlari kerak. Bitiruvchi IV kurs talabalari esa biologiya bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarni barcha turlarini amalgalashadi.

oshirish va o'rtoqlarining shu ishlarida qatnashib, ularni tahlil qilishni talab qiladi.

#### **1.4-§. Pedagogik amaliyotning vazifalari**

Bo'lajak biologiya o'qituvchisi egallaydigan kasbi bo'yicha kamol topishida har xil o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi omillar ishtirok etadi. Ular orasida o'qituvchi shaxsini bevosita shakllantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya ishlarini bajarishda yuqori kurslarda o'tiladigan pedagogik amaliyot muhim rol o'ynaydi. Bu amaliyot talabalarning pedagogika oliv o'quv yurtlarida oladigan professional pedagogik tayyorgarligining tugallovchi bosqichidir.

Ta'lim-tarbiya ishlarini bajarish bo'yicha o'tkaziladigan pedagogik amaliyot ishi shu bilan xarakterlik, bunda amaliyot talabalarning kasb bo'yicha kelgusidagi amaliy faoliyati sharoitida o'tkaziladi. Pedagogik amaliyotning bu oxirgi bosqichi maxsus yo'riqnomasi va dasturda mo'ljallangan qator ta'lim tarbiya vazifalarini bajarishini nazarda tutadi. Uning maqsadi talabalarni predmet o'qituvchisi va sinf rahbari ishini bajarishda bevosita bajarishga o'rgatishdir.

Yuqori kurslardagi ta'lim-tarbiya amaliyoti talabalarning oliv o'quv yurtida olgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirishi va mustahkamlashi, bu bilimlarni o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarida qo'llashda o'rgatishi kerak. Bu amaliyot jarayonida talabalar o'quvchilarini o'qitishga va tarbiyalashga ta'lim tarbiya jarayonlarini uzviy birlikda bo`lishini ta`minlashda g`oyaviy, siyosiy, aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasini birlikda amalga oshirishga kompleks yondashishga o'rgansinlar. Buning uchun mazkur amaliyot barcha imkoniyatlarga ega. Haqiqatdan ham pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning ko`pgina asosiy o'quv predmetlari va ayniqsa pedagogik siklda predmetlar bo'yicha tayyorgarligi ma'lum darajada davom etadi. Oliy o'quv yurtlarida o'rganilayotgan fanlarning g`oyaviy boyliklari chuqurroq o`zlashtiriladi. Masalan talaba yoki amaliyotchi biologiya bo'yicha dars yoki darsdan tashqari biror ishga

tayyorlanayotganda albatta ilgari o`tilgan biologiya fanlari asoslarini pedagogika psixologiya va o`qitish metodikasini takrorlaydi. Qo`shimcha adabiyotni chuqurroq o`rganadi. Tahlil qilish paytida esa pedagogik amaliyotgacha yuzaki yoki rasman qabul qilingan ma`lumotlarni ilgari o`rganilgan o`quv predmetlarning nazariy qoida va amaliy tavsiyalarini ongliroq tushuna boshlaydi. Bularning hammasi pedagogik nazariyaga qiziqishni oshiradi. Ta`lim-tarbiya qonuniyatlarini chuqurroq tushunib olishga yordam beradi. Buning natijasida talabalarning maxsus hamda pedagogik bilimlariga nisbatan munosabatlari o`zgaradi, yaxshilanadi. Talaba amaliyotchilarga o`quvchilar bilan olib borilayotgan ta`lim tarbiya ishlarini kuzatish va tahlil qilish uquvlarini singdirish, Pedagogik amaliyotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik amaliyotda talabalar o`zlarining metodika, pedagogika, psixologiya, yosh fiziologiya bilimlariga asoslanib, o`quvchilar bilan ularning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta`lim tarbiya ishlarini olib borishga o`rganishlari kerak. Bu borada talaba amaliyotlarning o`quvchilar bilish faoliyatini aktivlashtiruvchi xilma xil uslublarni metod va metodik uslublarni qo`llash bilan o`tkaziladigan turli tipdagi darslarga tayyorgarlik ko`rish bo`yicha mashqlanishi muhim talablardandir.

Talaba amaliyotchilarning mактабда sinf rahbari ishlarini bajarishga o`quvchilar jamoasi bolalar yoshlар tashkilotlari bilan ishlashga shuningdek, o`quvchilar bilan yakka tarzda tarbiyaviy ishlar olib borishga o`rganishlari ham muhim vazifa sifatida e`tibordan chetda qolmasligi kerak. Bu vazifani bajarish bo`lajak o`qituvchidan yuqori g`oyaviy va siyosiy tayyorgarlikni yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashning nazariy metodikasini bilishni, tegishli tarbiyaviy o`quv bilimlarga ega bo`lishni talab qiladi.

Nihoyat talabalarning o`qituvchilik kasbiga moyilligi va qobiliyatini aniqlab beruvchi vosita sifatida pedagogik amaliyot ularda pedagogik ishga muhabbatini rivojlantirishi va mustahkamlashi, maxsus va

pedagogik o`quv predmetlarini o`rganishga bo`lgan intilishini kuchaytirishi, ta`lim-tarbiya vazifalarini ijodiy hal qilishi tayyorlashi, talabaldagi murabbiylik qobiliyatini yanada kamol toptirishi kerak. Shu narsa ma`lumki oliv o`quv yurtidagi mashg`ulotlarda o`z qobiliyati jihatdan uncha ko`zga ko`rinmagan talabalar pedagogik amaliyotda eng yaxshi o`qituvchilarga xos xislatlarni namoyon qiladilar. Pedagogik amaliyotning yuqorida yoritilgan vazifalarini amalga oshirish asosan unda ishtirok etuvchi talaba amaliyotchilarning ham mutaxassisliklar bo`yicha metodistlarning ham pedagogika va psixologiya kafedralari vakillaring ham faoliyatları oqilona maqsadga muvofiq tarzda tashkil qilinishiga bog`liq. O`quv jarayoni sifatida pedagogika amaliyotning to`g`ri va chuqur tushunish, uni samarali talabalar uchun foydali qilib o`tkazish imkoniyatini beradi.

Shu munosabat bilan har bir pedagogik amaliyot ishtirokchisining yo`riqnomaga mo`ljallangan aniq vazifalarini yoritish ehtiyoji tug`iladi.

## **II BOB. PEDAGOGIK AMALIYOTGA TAYYORLANISH VA TEGISHLI SHAXSLARNING VAZIFALARI**

### **2.1-§. Talabalarning pedagogik amaliyotga tayyorlanishi**

Pedagogik amaliyotning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydigan omillardan biri unga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishdir. Pedagogika oliv o‘quv yurtlarida pedagogik amaliyotga tayyorlanishning muayyan tizimi qaror topgan. Bu tizim quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) talabalarning pedagogik amaliyot o‘tishga tayyorlanishi;
- b) pedagogik amaliyot o‘tkaziladigan maktablarda tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish;
- c) pedagogik amaliyot davomida amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish.

O‘qituvchilik kasbini egallash maqsadida pedagogika instituti va universitetlariga o‘qishga kirgan har bir talaba o‘qish boshlanishi bilan mактабда ishlashga hozirlilik ko‘rib borishi kerak.

Talabalar maktabda samarali pedagogik amaliyot o‘tish uchun dastlabki tayyorgarlikni avvalo institutdagi barcha mashg‘ulotlardan oladilar. Bunda nazariy shakldagi o‘quv predmetlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Biologik sikldagi o‘quv predmetlarini, pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasini o‘rganish bilan talabalar umumta’lim, psixologik-pedagogik hamda metodik tayyorgarlikka ega bo‘ladilar.

Chunonchi, biologik sikldagi o‘quv predmetlarini chuqur o‘rganish talabalarga pedagogik amaliyotgacha maktab biologiya kursining asosiy mazmunini puxta o‘zlashtirib olishga imkon beradi. Bu talabalarning maktabda samarali amaliyot o‘tishlari uchun g‘oyat zarurdir.

Talabalarning pedagogik amaliyotga bevosita tayyorlanishlarida ayniqsa, psixologik-pedagogik sikldagi o‘quv predmetlari, o‘qituvchilik kasbiga kirish, yosh fiziologiyasi, maktab gigiyenasi, psixologiya, pedagogika nazariyasi va pedagogika tarixi, biologiya o‘qitish metodikasi

kabi fanlarni o‘rganish, shuningdek biologiya o‘qitish metodikasi bo‘yicha dala amaliyotini o‘tish g‘oyat zarurdir.

Birinchi kursda o‘tiladigan “O‘qituvchilik kasbiga kirish” nomli kurs talabalarda ularning bo‘lajak mutaxassisliklari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar to‘g‘risida tasavvur hosil qiladi, ularni pedagogik bilim hamda o‘quvlarni egallash bo‘yicha mustaqil faoliyatga tayyorlaydi, o‘qituvchilik kasbining sotsial mohiyati, uning jamiyatdagi o‘rni va vazifalarini, ish mazmuni, shakllari hamda metodlari, pedagogik faoliyatga tayyorlanish tizimi, oliy o‘quv yurtidagi ta’lim-tarbiya jarayonlarining tuzilishi va tashkil qilinishi bilan tanishtiriladi.

Umumiy psixologiya bo‘lajak o‘qituvchiga nazariy tayyorgarlik beradi, uni bolalar psixologiyasini o‘rganishga va tushunishga hozirlaydi. Jumladan pedagogik va bolalar psixologiyasi bilimini pedagogik jarayonga tatbiq qilish yo‘llarini ochib beradi. Psixologiya bilimlarini egallash bilan talabalar o‘z qadr qimmatlari hamda kamchiliklarini, xotira, diqqat va xarakterlarini yaxshiroq anglab oladilar, o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatini pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilish uquvlarini egallay boshlaydilar. Psixologiya bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda ular o‘quvchilarni o‘rganish, dars va boshqa kuzatishlardan olingan axborotlarni ishlash bo‘yicha dastlabki tajribaga ega bo‘ladilar. Bu talabalarning alohida o‘quvchiga yoki sinf jamoasiga psixologik xarakteristika berish bo‘yicha topshiriqlar bajarishlariga yordam beradi.

Pedagogika talabalarni ta’lim va tarbiyaning umumiy metodlari bilan qurollantiradi, ularga pedagogik tushunchalar va qonuniyatlarni mavhum kategoriya sifatida emas, balki o‘qituvchilik mahoratini egallash o‘lchovi sifatida o‘zlashtirib olishlariga yordam beradi, ularni tarbiyaning umumiy metodlari, shaxsiy har tomonlama rivojlantirishdagi roli, pedagogik odob bilan tanishtiradi. Pedagogika bo‘yicha amaliy va seminar mashg‘ulotlari talabalarning tarbiya jarayonini ijodiy ravishda va ongli mulohaza qilishga o‘rgatadi. Bu mashg‘ulotlar odatda maktabda

o‘tkazilib, bunda talabalar, bolalar yig‘ilishlari va sinf majlislarida bo‘ladilar, ularni kuzatadilar, sinfdan tashqari tadbirlar uchun konspektlar tuzish va tahlil qilish bo‘yicha o‘rganadilar. Bularning hammasi talabalarni aniq pedagogik muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Pedagogika tarixi kursi bo‘yicha o‘tkaziladigan ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida talabalarning pedagogik bilimi boyitiladi va chuqurlashtiriladi. Bu kurs yosh avlodni tarbiyalash to‘g‘risidagi bilimlarining vujudga kelish tarixini ochib beradi, ta’lim tarbiyaning ravnaqini yoritadi. Pedagogika tarixini o‘rganish talabalarda tahliliy tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi, har xil pedagogik qarashlarning farqiga borishga, birinchi manbalarni mustaqil va ijodiy tarzda o‘rganishga, referatlar yozishga yo‘naltiradi, ularga shaxsning eng muhim sifatlaridan o‘z fikrini to‘g‘ri va aniq ifodala olish o‘quvini rivojlantiradi.

Talabalarning bitirish oldi kursida va bitiruvchi kurslarida ta’lim-tarbiya ishlarini bevosita bajarish bo‘yicha o‘tadigan amaliyotga tayyorlanishda oldingi kurslardagi uzluksiz pedagogik amaliyot muhim ahamiyat kasb etadi. Bu amaliyot talabalarni maktab hayotiga kirish bilan ularda dastlabki pedagogik uquvlarni vujudga keltiradi. Yuqori kurslardagi pedagogik amaliyotning samaradorligi ana shu uzluksiz amaliyotning qanchalik sifatli o‘tkazilishiga bog‘liq.

Mutaxassislik fanlari, jumladan biologiyani o‘qitish metodikasini talabalar saviyasida o‘rganish talabalarning yuqori kurslardagi pedagogik amaliyotga bevosita tayyorlanishlarida g‘oyat muhim talab hisoblanadi. Metodika bo‘yicha ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlarida talabalar muktab dasturi va darsliklarini, sinfdan tashqari o‘qishlar uchun o‘quvchilarga tavsiya qilinadigan, adabiyotlarni o‘rganib boradilar, ta’lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish, dars va boshqa mashg‘ulotlar uchun reja konspekt tuzish yuzasidan mashqlar o‘tkazadilar dasturda talab qilinadigan biologik kuzatish va tajribalar metodikasini o‘zlashtirib boradilar, lupa va mikroskop bilan ishslash, asboblardan foydalanish

ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va ularni tuzatish, ekran va o‘qitishning boshqa texnika vositalaridan foydalanish kabi ishlar bo‘yicha dastlabki ko‘nikmalarini hosil qiladilar.

Talabalarni mакtabda biologiyadan pedagogik amaliyot o‘tish uchun zarur bo‘lgan tegishli o‘quv va ko‘nikmalar bilan quollantirishda o‘qish metodikasi bo‘yicha tashkil qilingan fakultativ hamda to‘garak mashg‘ulotlari ham ijobiy rol o‘ynaydi. Bu mashg‘ulotlarda talabalarning ko‘proq mustaqil bo‘lishlari, biologiya o‘qitish metodikasini turli masalalarini hal qilishga jalb qilishlari ularda ijodiy izlanishga moyillikni shakllanishiga yordam beradi. Ijodiy izlanishga moyillik esa pedagogik mahoratni egallashda muhim omil hisoblanadi.

Maktablarning o‘quv-tajriba uchastkalari oliy ta’lim muassasalarining agrobiologiya stansiyasi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining turli sohalarida biologik faktlar hamda o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘tkaziladigan dala amaliyotlari talabalarning pedagogik amaliyotga tayyorlanishlarida g‘oyat muhimdir. Bunday amaliyotlarda talabalar mahalliy flora va faunani o‘rganish bilan birga dala ishlari, quyonchilik va parrandachilik, asalarichilik va tut ipak qurti boqish kabi ishlar bilan bevosita tanishadilar ayrim hollarda esa bu ishlarni bevosita bajarishda o‘zлari ham faol qatnashadilar.

Maktabda pedagogik amaliyot o‘tayotgan har bir talaba biolog o‘quvchilarning manzarali xona o‘simliklarini o‘stirishlari, ular ustida kuzatish va tajriba olib borishi, parnik va issiqxonada sabzavot va gul ko‘chatlarini yetishtirish hamda ularni paykallarga o‘tkazish, o‘quvchilar ishlab chiqarish brigadasi kabi ishlarga rahbarlik qilish kerak.

Maktab biologiyasi dasturida ayrim mavzular bo‘yicha tabiatga va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga ekskursiyalar o‘tkazish mo‘ljallangan. Biologiya bo‘yicha pedagogik amaliyotda talabalar ana shunday ekskursiyalarni o‘tkazishlari kerak. Buning uchun har bir talaba biolog mahalliy fauna va flora bilan tanish bo‘lishi zarur. Botanika, Zoologiya, O‘simliklar fiziologiyasi bo‘yicha I-II kurslarda

o'tkaziladigan dala amaliyotlari talabalarda mahalliy fauna va flora to'g'risida tegishli bilimlar hosil qiladi.

Xullas, pedagogik amaliyotga tayyorlanish talabalari o'qituvchi bo'lib yetishish orzusiga ega bo'lgan har bir talabaning oliv o'quv yurtidagi barcha ma'ruzalarini qoldirmasdan tinglab borishi, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarida belgilangan amaliy ishlarni to'liq bajarishi zarur. Faqat shundagina talaba mакtabda pedagogik amaliyotni mazmunli o'tkazishi mumkin.

Talabalarning oliv o'quv yurtida bajaradigan sinfdan tashqari ishlari ham ularning pedagogik amaliyotni o'tishlari uchun katta ahamiyatga ega. Ko'p yillik kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, OTMdа ijtimoiy tashkiliy ishlarda qatnashib borgan talabalar maktabga topshirilgan barcha ta'lim tarbiya ishlarini har doim qiyalmasdan yuqori saviyada bajaradilar. Talaba hatto oz bo'lsa ham ijtimoiy ish va tashkilotchilik tajribasiga ega bo'lsa u pedagogik amaliyotda o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni yetarli darajada faollik va tashabbus bilan bajaradi.

Bu ishlar jarayonida talaba mакtabdagи ta'lim tarbiya jarayonini maktab va sinf jamoasini o'rganish, murabbiy sifatida bolalar bilan ishslash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Nihoyat talabalarning bolalar lagerida amaliyot o'tishlari to'garak rahbari bo'lib ishslashlari mutaxassislik fani bo'yicha maktabda o'tkaziladigan pedagogik amaliyotning samaradorligini ta'minlaydigan omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa talabalarning bolalar lagerida yosh tabiatshunos to'garagi rahbari bo'lib ishslashlari g'oyat katta ahamiyatga ega. Bunda ular biologiyadan sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlari uysushtirish bo'yicha ancha qimmatli tajribalar orttiradilar.

Pedagogik amaliyotga chiqishdan oldin har bir talaba mutaxassislik fanlari va ularni o'qitish metodikasi, maktab dasturi hamda darsliklari bo'yicha kollokvium topshirishlari kerak. Bunda talabaning ilmiy va metodik tayyorgarlik saviyasi aniqlanadi, uning maktabda amaliyot o'tishga qancha yaroqli ekanligi bilan olingan.

## **2.2-§. Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish**

Malakaviy pedagogik amaliyot OTMning qabul qiluvchi tashkilotlar bilan belgilangan tartibda tuzilgan uch tomonlama shartnomalari asosida tashkil qilinadi.

OTM, amaliyotchi-talaba va qabul qiluvchi tashkilot pedagogik amaliyotni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha shartnomada:

- shartnoma predmeti;
- taraflarning huquq va majburiyatlari;
- amaliyotchi-talabani qabul qiluvchi tashkilotning ish faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish tartibini;
- shartnomaning amal qilish muddatini;
- shartnomani bekor qilish asoslarini;
- shuningdek taraflarning javobgarligini kelishib oladi.

Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish mas’ul OTM rektori va uni o‘tkazish uchun javobgarlik qabul qiluvchi tashkilot (muassasa rahbari) zimmasiga yuklatiladi.

Amaliyotchi-talabaning malakaviy pedagogik amaliyoti reja-jadvali va dasturlarini to‘liq bajarilishiga qabul qiluvchi tashkilot (muassasa rahbari) rahbari javobgar hisoblanadi.

Amaliyotchi-talabalar va malakaviy pedagogik amaliyot uchun mas’ul xodimlarning faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjat malakaviy pedagogik amaliyot dasturi hisoblanadi.

Amaliyotchi-talabalar malakaviy pedagogik amaliyot dasturi bo‘yicha “Amaliyotchi portfoliosi”ni muntazam yuritib borishi lozim.

Malakaviy pedagogik amaliyot dasturi ta’lim yo‘nalishining malaka talablariga va ishchi o‘quv rejadagi fanlar mazmuniga mos kelishi, ta’lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek fan va ishlab chiqarishning so‘nggi yutuqlarini inobatga olishi kerak.

## **Amaliyot dasturi quyidagi asosiy bo‘limlardan tarkib topadi:**

Malakaviy pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari, amaliyot mazmuni, reja-jadvali, amaliyotchi-talaba faoliyatini baholash mezoni, amaliyot bo‘yicha hisobotga talablar.

Bundan tashqari, malakaviy pedagogik amaliyot dasturiga amaliyotni o‘tashga doir uslubiy ko‘rsatmalar (tavsiyalar), foydalaniqidigan asosiy va qo‘sishimcha adabiyotlar, o‘qish davrida olingan bilimlarning mustahkamlanishiga xizmat qiluvchi tegishli materiallar va hujjatlar haqidagi bo‘limlar ham kiritilishi mumkin.

Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish oldidan OTM rektorining amaliyotni muddati, o‘tash joyi, tashkil etish va uni o‘tkazishni nazorat qilish yuklatilgan mas’ul shaxslar ko‘rsatilgan buyrug‘i rasmiylashtiriladi.

OTMning malakaviy amaliyot va hamkorlik bo‘limi malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish, o‘quv-uslubiy ta’minlash hamda o‘tashni muvofiqlashtirish ishlarini mutaxassis chiqaruvchi kafedra mudiri, fakultet dekani hamda qabul qiluvchi tashkilot rahbari bilan birgalikda amalga oshiradi.

OTM tomonidan amaliyotchi talabalarning o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha doimiy yashash hududidagi ta’lim muassasalarida shartnomalar asosida pedagogik faoliyatini davom ettirayotgan bitiruvchilarga mutaxassis chiqaruvchi kafedralar tomonidan uslubiy yordam ko‘rsatish monitoringi joriy etiladi.

Amaliyotchi-talaba, OTM va qabul qiluvchi tashkilot o‘rtasidagi uch tomonlama shartnomalar asosida amaliyotchi-talaba pedagogik amaliyotini xorijiy davlatlar korxonalarini, muassasalarini va tashkilotlarida o‘tashi mumkin. Bunda, OTM amaliyot bo‘yicha tuziladigan shartnomalarini yuqori turuvchi vazirlig, idora bilan belgilangan tartibda kelishadi.

## **Pedagogik amaliyot o‘tkazishning tashkiliy masalalari**

Biologiyadan pedagogik amaliyotning samaradorligi ko‘p jihatdan bir qator tashkiliy masalalarining qanchalik to‘g‘ri hal qilinishiga bog‘liq. Bularga pedagogik amaliyot o‘tkazishning eng qulay vaqtini belgilash, amaliyot uchun mos keladigan maktablarni tanlash hamda ularni amaliyot o‘tkazishga tayyorlash, talabalarni pedagogik amaliyotga tayyorgarlik ko‘rishlarini tashkil qilish, maktabda amaliyot davomida amalga oshiriladigan barcha ta’lim tarbiya ishlarini planlashtirish kabi ishlar kiradi. Quyida pedagogik amaliyotning barcha tashkiliy masalalaridan eng muhimlari, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligiga bevosita daxldorlari ustida qisqacha to‘xtab o‘tamiz.

## **Pedagogik amaliyot o‘tkazish vaqtি**

Odatda bitirish oldi va bitiruvchi kurs talabalarining biologiyadan pedagogik amaliyoti pedagogika oliv o‘quv yurti talabalarning o‘quv rejalariga muvofiq har xil muddatlarda o‘tkaziladi. Bir xil pedagogika institut va universitetlarda bitirish oldi kursi talabalari pedagogik amaliyotning kuzgi, qishki mavsumda (noyabr, dekabr oylarida) bitiruvchi kurs talabalariga esa bahor paytlarida o‘tadilar. Boshqa pedagogika oliv o‘quv yurtlarida buning teskarisini ko‘ramiz, ya’ni bitirish oldi kursida kuzgi davrga rejalashtiriladi. Ba’zi pedagogika OTMlarda har ikkala kurs talabalarini pedagogik amaliyotni o‘quv yilining ikkinchi semestrida o‘tadilar.

Biroq, talabalarning pedagogik amaliyotini qachon va qanday vaqtida o‘tkazish befarq narsa emas. Chunki yilning tegishli mavsumi bu amaliyotning muvaffaqiyatlari o‘tishi uchun qulaylik tug‘diradi.

Tajriba, masalan O‘zbekiston Respublikasi maktablari sharoitida, biologiyadan o‘tkaziladigan pedagogik amaliyot uchun eng qulay vaqt yilning mart-aprel, sentyabr-oktyabr oylari ekanligini ko‘rsatadi. Ana shu paytlarda talabalar uchun o‘z darslarini tabiiy, jumladan materialllar bilan jihozlashga, o‘quvchilar bilan tabiatda, maktab o‘quv-tajriba maydonida, tirik tabiat burchagida, o‘quvchilarining ishlab chiqarish brigadalarida va

boshqa obyektlarda tabiatshunoslik ishlari olib borishda keng imkoniyatlar tug‘iladi. Ayniqsa pedagogik amaliyat mart-aprel oylarida o‘tkazilganda talabalar o‘quvchilarning maktab o‘quv uchastkasi, parnik va issiqxonalarda bajaradigan bahorgi ishlariga rahbarlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bir qator pedagogika oliv ta’lim muassasalarida biologiya bo‘yicha pedagogik amaliyat bitirish oldi kursida bahorda, bitiruvchi kursda esa o‘tkazilib yaxshi natijalarga erishilmoqda. Bunda bitirish oldi kurs talabalari mart-aprel oylarida pedagogik amaliyat o‘tganlarida o‘quvchilarning maktab tajriba uchastkasidagi bahorgi ishlariga rahbarlik qilish, tabiatga ekskursiya o‘tkazish, yosh tabiatshunoslarning xilma-xil kuzatishlar olib borishlarini tashkil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Kuzga kelib ular bitiruvchi kurs talabalari bo‘lib, pedagogik amaliyotda o‘quvchilar bilan bahorda boshlangan qishloq xo‘jaligi shaklidagi ishlarni oxiriga yetkazadilar; chunonchi hosilni yig‘ishtirish va hisobga olish, o‘quvchilarning bahor va yozda olib borgan tabiatshunoslik ishlarini yakunlash, qishga tayyorlanish va shu kabi ishlarni amalga oshiradilar. Shubhasizki, bunday izchillik talabalarning maktabdagi kelgusi faoliyatiga yanada yaxshiroq tayyorlanishlariga yordam beradi.

### **Pedagogik amaliyat uchun maktablar tanlash**

Talabalarning pedagogik amaliyoti uchun maktablarni to‘g‘ri tanlash juda ham muhim masaladir. Tanlangan maktablarning har jihatdan munosib bo‘lishi pedagogik amaliyotning muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlovchi omillardan biri hisoblanadi. Pedagogik amaliyat uchun maktablar tanlashda avvalo talabalarning namunali mакtabda pedagogik kasbni puxta egallash bo‘yicha mashqlar o‘tkaza olishlari nazarda tutilishi kerak. Haqiqatan ham o‘z ishida yaxshi ko‘rsatgichlarga erishgan, biologiya o‘qitishning moddiy-texnika bazasi va mutaxassislik bo‘yicha tajribali o‘qituvchilarga ega bo‘lgan maktablargina biologiyadan pedagogik amaliyotning samarali o‘tishi uchun qulay zamin bo‘la oladi.

Bu talabalar xususan bitirish oldi kursi pedagogik amaliyoti uchun g‘oyat ahamiyatlidir.

Pedagogik amaliyot o‘tkaziladigan maktab ayniqsa mutaxassislik bo‘yicha yuqori malakali, o‘z ishiga mohir va tajribali o‘qituvchilarga ega bo‘lishi zarur. Masala shundaki pedagogik amaliyot davrida unda qatnashuvchi ko‘pchilik metodistlar vaqtı-vaqtı bilan institutda ham mashg‘ulotlar o‘tkazib turadilar, shu sababli ular talabalarning maktabdagı faoliyatiga muntazam rahbarlik qila olmaydilar. Shunday paytlarda maktabning o‘z ishini yaxshi biladigan tajribali o‘qituvchilari metodistlarning eng yaxshi, yordamchisi va tayanchi sifatida xizmat qiladilar.

Bir qator pedagogika oliy ta’lim muassasalari tajribalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadi, pedagogik amaliyot uchun maktablar tanlashda asosan yuqorida keltirilgan talabalarga rioya qilinadi. Lekin amaliyot uchun ko‘proq shahar maktablari tanlanadi. Bunda pedagogik amaliyotning shahar maktablarida o‘tkazilishi tashkiliy jihatdan qulay ekanligi nazarda tutiladi. Shunga qaramay tajriba, shahar maktablarida biologiya bo‘yida pedagogik amaliyot o‘tkazish talabalarning professional pedagogik tayyorgarlik saviyasini ko‘tarish uchun tegishli sharoitlar yetarli emasligini ko‘rsatdi. Chunki, shahar maktablarida ayniqsa bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining samarali metodik tayyorgarligini ta’minlash uchun tegishli sharoitlar yoq. Bunday sharoitlar qishloq maktablarida mavjud. Binobarin, biologiyadan pedagogik amaliyotni qishloq maktablarida o‘tkazish g‘oyat muhimdir. Bunda avvalo amaliyotchi talabalar o‘z darslari, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tegishli tabiiy demonstratsiya obyektlari va tarqatma materiallar bilan ta’minlash o‘quvchilarning qishloq xo‘jaligi va tabiatshunoslik ishlarini keng ko‘lamda tashkil qilish va ularga rahbarlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Qishloq maktab o‘quvchisining, ayniqsa biologiya o‘qituvchisining ishi g‘oyat ko‘p qirrali va turli tumandir. Unga xilma-xil va o‘ziga xos

vazifalarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Shunday muhim vazifalardan biri o‘qituvchilarni qishloq xo‘jaligi sohasidagi kasblarni tanlashga yo‘naltirishdir. Shunga ko‘ra, qishloq maktablarining biologiya o‘qituvchilari o‘z predmetini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning olgan bilimlarini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida qo‘llanishga o‘rgatishi, qishloq xo‘jaligidagi kasblarga yondashtirishi kerak. Bu sohadagi murabbiylik ko‘nikmalarini bo‘lajak biologiya o‘qituvchilari asosan qishloq maktablarida tashkil qilingan pedagogik amaliyotda hosil qilishlari mumkin.

Hozirgi paytda pedagogika OTMlari bitiruvchilarining ko‘pchiligi qishloq maktablariga ishga yuborilmoqdalar. Shuni, e’tiborga olinsa, biologiya bo‘yicha pedagogik amaliyotni qishloq maktablarida o‘tkazish zarurligi yanada namoyon bo‘ladi. Haqiqatdan ham ba’zi tashkiliy qiyinchiliklarni hisobga olganda biologiyadan pedagogik amaliyotni qishloq maktablarida o‘tkazish uning samaradorligini oshirishda muhim vositadir. Bunday amaliyotda talabalar qishloq sharoitida olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining o‘ziga xosligini bilib oladilar, biologiya o‘qitishning turmush bilan bog‘lanish bilim va amaliy ko‘nikmalar hosil qiladilar, OTMni bitirgach qishloqda ishslashga psixologik jihatdan tayyorlangan bo‘ladilar.

### **Pedagogik amaliyotning boshqa tashkiliy masalalari**

Pedagogika amaliyot uchun tanlangan maktablarning har biriga qancha talaba yuborish masalasi shu maktabdagi sinflarning soniga qarab hal qilinadi. Bunda har qaysi amaliyot o‘tkazilgan sinfda IV kursda 1-2, bitiruvchi kursda esa bir talaba biriktirish nazarda tutiladi. Ammo maktabga yuboriladigan talabalar soni haddan tashqari ko‘p bo‘lmasligi kerak. O‘rtacha bir maktabga 12-15 talaba yuborilishi yetarli.

Maktabga yuboriladigan talabalar guruhini ta’minalash muhim masaladir. Bu ishda mutaxassislik fanlari bo‘yicha institutda o‘tkazilgan laboratoriya mashg‘ulotlarida shakllangan kichik guruhning asos qilib olinishi g‘oyat o‘rinlidir. Chunki bu kichik guruhda bir qator an‘analar

shakllangan bo‘ladi, uning a’zolari bir-birlarini yaxshi tushungan, bir-birlariga o‘rganib qolgan bo‘ladilar.

Talabalar guruhini tashkil qilishda ularning bir-biriga o‘zaro yordam ko‘rsata olish imkoniyatlarini ham nazarda tutish zarur. Har bir guruh tarkibiga o‘zlashtirish jihatidan kuchli, o‘rtacha va bo‘shroq talabalar kiritilishi, agar mavjud bo‘lsa, pedagogik tajribaga ega bo‘lganlardan ham tayinlanishi ma’qul. Ayniqsa guruhdan ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan tajribali va tashkilotchi talabalardan bo‘lishi shu mакtabda pedagogik amaliyatning samarali o‘tishi uchun g‘oyat foydalidir. Ana shunday talabalar jamoasining tayanch o‘zagini tashkil qiladi.

### **2.3-§. Mas’ul shaxslarning vazifalari**

#### **Pedagogika kafedrasi vakilining vazifalari:**

1. Pedagogik amaliyatga bag‘ishlangan kirish va yakunlovchi konferensiylar hamda kengashlarda ishtiroy qiladi;
2. Tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rnibosari va sinf rahbarlari bilan bиргаликда mакtab miqyosida va sinf rahbarlari sifatida talaba amaliyotchilar amalga oshiradigan tarbiyaviy ishlarni rejalashtiradi;
3. Sinflarda va mакtab bo‘yicha o‘tkaziladigan tarbiyaviy ishlarga amaliyotchi talabalarni qatnashtiradi va ularning muhokamasini o‘tkazadi;
4. Amaliyotchi talabalar uchun mакtab rahbarlaridan biri ilg‘or va tajribali sinf rahbarining suhbatlarini tashkil qiladi;
5. Amaliyotchi talabalarning o‘quvchilar bilan tarbiyaviy ishlar olib borishlarini ta’minlaydi; o‘z sinfida o‘tkaziladigan tarbiyaviy ishlar rejasini tuzish bo‘yicha amaliyotchi talabalarga konsultatsiya beradi, ularning tarbiyaviy ishlar rejasni va konspektini tekshiradi, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni amaliyotchi talabalar bilan bиргаликда kuzatadi, ularning muhokamasini tashkil qiladi va baholaydi;
6. O‘qituvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganishda amaliyotchi talabalarga yordam beradi;

**7.** Pedagogik amaliyotning boshqa rahbarlari bilan birgalikda amaliyotchi talabalar faoliyatini baholashda qatnashadi,

**8.** Pedagogik amaliyot davomida amaliyotchi talabalarga oshirgan tarbiyaviy ishlar to‘g‘risida o‘z kafedrasiga va maktab bo‘yicha pedagogik amaliyot rahbariga tegishli ma’lumotlar beradi.

### **Psixologiya kafedrasi vakilining vazifalari:**

**1.** Pedagogik amaliyotga bag‘ishlangan kirish va yakuniy konferensiyalar va kengashlarga qatnashadi;

**2.** Amaliyotchi talabalarning darslari va sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg‘ulotlarini kuzatadi va o‘zining psixologik tahlili bilan ularning muhokamasida qatnashadi;

**3.** Amaliyotchi talabalarga psixologiya bo‘yicha pedagogik amaliyot dasturi mo‘ljallangan o‘quvchi shaxsi va o‘qituvchilar jamoasini o‘rganishga oid topshiriqlarni bajarishlariga rahbarlik qiladi;

**4.** Pedagogik amaliyotning boshqa rahbarlari bilan birgalikda amaliyotchi talabalar faoliyatini baholashda qatnashadi.

Pedagogik amaliyotning muvaffaqiyatli o‘tishida maktab ma’muriyati va o‘qituvchilar jamoasining roli kattadir. Ularning bu ishga to‘g‘ri munosabati, yaqindan yordami amaliyotchi talabalarning tegishli amaliy-pedagogik ko‘nikmalar hosil qilishlarida, o‘qituvchilik kasbini puxta egallahlarida muhim omil hisoblanadi. Buning uchun pedagogik amaliyotda bevosita qatnashuvchi har bir maktab xodimi amaliyotchi talabalarga nisbatan o‘z burchi va vazifalarini yaxshi tasavvur qilishi lozim.

### **Maktab direktorining vazifalari:**

**1.** Maktabda pedagogik amaliyotning samarali o‘tishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi va shu maqsadda o‘quvchilar, o‘qituvchilar va boshqa xodimlar bilan tegishli ishlar olib boradi;

**2.** Amaliyotchi talabalarni maktab ishlari bilan bevosita tanishtiradi. Shu maqsadda ularni maktabda ta’lim-tarbiya ishlarini qo‘yilishi bilan,

maktabning o‘quv bazasi (kabinetlar, ustaxona, tirik tabiat burchagi, teplitsa, o‘quv tajriba maydoni, kutubxona va h.k) bilan, maktab pedagogika kengashi, metod birlashmalari hamda ota-onalar komitetining ishlari bilan tanishtiriladi;

3. Maktab bo‘yicha pedagogik amaliyot rahbari bilan birga talabalarni sinflarga taqsimlaydi;
4. Amaliyotchi talabalarning ayrim darslarini, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarini kuzatadi va ularning muhokamasida qatnashadi;
5. Pedagogik amaliyotning boshlanishi va oxirida amaliyotchi talabalar bilan kengashlar o‘tkazadi.

#### **Tarbiyaviy ishlar bo‘yicha maktab direktori o‘rinnbosarlarining vazifalari:**

1. Amaliyotchi talabalarni maktabning tarbiyaviy ishlar rejasи bilan tanishtiradi;
2. Amaliyotchi talabalar amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlarning ayrimlarini kuzatadi va ularning muhokamasida qatnashadi.

#### **Fan o‘qituvchisining vazifalari:**

1. O‘ziga biriktirilgan amaliyotchi talabalarни ish rejasи bilan tanishtiradi, ular uchun mutaxassislik fani bo‘yicha ochiq dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkazib ko‘rsatadi;
2. Metodist bilan birgalikda mutaxassislik fani bo‘yicha dars va darsdan hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar mavzularini taqsimlaydi;
3. Dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga tayyorlanishda amaliyotchi talabalgarda konsultatsiyalar beradi, ularning reja-konseptlarini tekshirib, mashg‘ulot o‘tkazishga rozilik beradi;
4. Amaliyotchi talabalarning mutaxassislik fani bo‘yicha dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarini kuzatadi, ularning muhokamasi va baholanishida qatnashadi;

5. Amaliyotchi talabalarni mutaxassislik fani bo'yicha darsdan va sinfdan tashqari ishlar bajarishga, ko'rgazmali qurollar tayyorlashga va boshqa ta'lif tarbiya xarakteridagi ishlarga jalb qiladi;
6. Pedagogik amaliyotga bag'ishlab maktab direktori qoshida o'tkaziladigan kirish va yakunlovchi kengashlarda, oliy o'quv yurtidagi konferensiyalarda qatnashadi.

### **Sinf rahbarlarining vazifalari:**

1. Amaliyotchi talabalarni sinf o'quvchilari ularning o'zlashtirishi va axloqlari bilan, asosiy tarbiyaviy vazifalar va o'zining shu chorakka tuzilgan ish rejasini bilan tanishtiradi, ular uchun sinf o'quvchilari bilan ochiq tarbiyaviy soat mashq'ulotini o'tkazib beradi;
2. O'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganishda amaliyotchi talabalarga yordam ko'rsatadi;
3. Pedagogik amaliyot davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy tadbirdierni belgilab olishda amaliyotchi talabalarga yordan beradi, tarbiyaviy ish rejasini tuzishda ularga konsultatsiya beradi;
4. Amaliyotchi talabalarga sinfda kundalik tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi;
5. Amaliyotchi talaba amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlarni kuzatadi va ularning muhokamasi hamda baholanishida qatnashadi;
6. Pedagogik amaliyotga bag'ishlab, maktab direktori qoshida o'tkaziladigan kirish va yakunlovchi konferensiyalarda qatnashadi.

### **2.4-§. Amaliyotchi talabalarining vazifalari:**

1. Amaliyotchi talaba pedagogik amaliyotning asosiy ishtirokchisidir. U pedagogik amaliyot to`g`risidagi mavjud yo`riqnomalar va dasturda ko`rsatilgan barcha ishlarni bajaradi. Har bir dars darsdan va sinfdan tashqari ishlarga sinf rahbari sifatida tarbiyaviy tadbirdierni o`z vaqtida puxta tayyorgarlik ko`rib yuqori saviyada o'tkazishga harakat qiladi. Bu ishlarda nazariyani amaliyot bilan bog`lanishga va o'quvchilar faolligini oshirishga erishmoq kerak. Amaliyotchi talabalardan pedagogik amaliyot

dasturini yaxshi bilish talab qilinadi. Agar amaliyotchi dastur talablarini to`liq bajarmasa, unda pedagogik amaliyot muvaffaqiyatli hisoblanmaydi;

**2.** Amaliyotchi talaba pedagogik amaliyot davomida maktabning ichki tartib qoidalarida qat`iy rioxasi qiladi. Maktab ma`muriyati va amaliyot rahbarlarining buyruqlariga bo`ysunadi va har kuni maktabga o`quv mashg`ulotlari boshlanishidan oldinroq kelishi va unda belgilangan vaqt davomida bo`lishi kerak. Sababsiz kech qolish, kelmay qolish intizom buzilishi hisoblanadi. Talaba amaliyotning o`quvchilarga uyushqoqlik, intizomlilik, mehnatsevarlik namunalarini ko`rsatishi, ularga nisbatan mehribon, xushmuomala va talabchan bo`lishi kerak;

**3.** O`qituvchi sinf rahbarining tajribalarini o`rganish maqsadida ularning dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg`ulotlarga kirish o`z gruppasidagi talabalarning barcha o`quv tarbiya ishlarida bo`lib, ularning muhokamasida faol qatnashish har bir amaliyotchi talaba uchun majburiydir. Amaliyotchi talaba kuzatiladigan mashg`ulotga o`z vaqtida ya`ni qo`ng`iroq chalinishidan oldinroq kirib, sinfda ajratilgan joyda o`tirib, mashg`ulot davomida uni diqqat bilan kuzatib boradi. Mashg`ulot o`tkazuvchining faoliyatiga aralashmasligi, yonidagilar bilan gaplashmasligi, mashg`ulotga o`z munosabatini ko`rsatmasligi kerak;

**4.** Pedagogik amaliyot talablariga amal qilmaganligi uchun maktabda amaliyot o`tishdan chetlatilgan yoki pedagogik amaliyotdagi faoliyati qoniqarsiz topilgan talaba fakultet kengashining qarori bilan oliv o`quv yurtidagi o`quv mashg`ulotlaridan ajralmagan holda takroran pedagogik amaliyot o`tashi kerak bo`ladi;

**5.** Pedagogik amaliyot davomida har bir talabandan tegishli hujjatlar yuritishi talab qilinadi. Amaliyot tugashi bilan u maktab bo`yicha amaliyot rahbariga quyidagi hujjatlarni topshirishi kerak.

## **Amaliyotchi-talabaning malakaviy pedagogik amaliyotni o‘tash bo‘yicha huquq va majburiyatları**

### **Amaliyotchi-talaba huquqlari:**

Malakaviy pedagogik amaliyotni o‘tash joyi, reja-jadvali, dasturi va tartibi bilan oldindan tanishishi;

Malakaviy pedagogik amaliyotni o‘tkazish bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishi;

Malakaviy pedagogik amaliyotni o‘tash yuzasidan zarur ma’lumotlar, yo‘riqnomalar olishi;

Malakaviy pedagogik amaliyot bo‘yicha uslubiy materiallar bilan tanishish hamda pedagogik amaliyoti rahbarlaridan yo‘l-yo‘riqlar olish huquqlariga ega.

### **Amaliyotchi-talaba majburiyatları:**

Malakaviy pedagogik amaliyot reja-jadvali va dasturida nazarda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda, to‘liq hajmda va sifatli bajarish;

Amaliyot davrida “Amaliyotchi portfoliosi”ni o‘rnatilgan tartibda yuritishi va tegishli ma’lumotlar kiritib borishi;

OTM va qabul qiluvchi tashkilot rahbarining (mas’ul qilib tayinlangan amaliyot rahbarlarining) dasturda ko‘zda tutilgan ishlarga oid barcha topshiriqlarini bajarishi;

Hisobotga tegishli hujjatlarni o‘z vaqtida rasmiylashtirish;

Qabul qiluvchi tashkilot xodimlari faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar va ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilish majburiyatları yuklatiladi.

Amaliyotchi-talaba malakaviy pedagogik amaliyotni o‘tagandan so‘ng qabul qiluvchi tashkilot rahbari ishtirokida malakaviy pedagogik amaliyoti bo‘yicha hisobotini belgilangan muddatda himoya qiladi va o‘rnatilgan tartibda baholanadi.

### **III BOB. MAKTABDA TALABALARINI PEDAGOGIK KASBGA O'RGATISH METODLARI VA USLUBLARI**

Maktabda pedagogik amaliyotning muvaffaqiyatli o'tishi boshqa omillar qatorida talabalarni o'qituvchilik kasbiga o'rgatish maqsadida qo'llaniladigan metodlar va uslublarga kam bog'liqdir. Chunki tegishli metod va uslublar vositasida talabalarda zarur pedagogik o'quv va qo'llanmalar shakllantiriladi, ularning pedagogikasi mutaxassislik fanlarda va ularni o'qitish metodikasi bo'yicha OTMdA olgan bilimlarga amalda o'z tasdig'ini topadi, yanada takomillashtiriladi.

Talabalarning pedagogik kasbga o'rgatish metodlarini o'qish metodlari deb hisoblash kerak, chunki talabalarning maktabda o'tadigan amaliyoti ham o'z mohiyati jihatdan o'qish jarayonidir. U talabalar bilan amaliyot rahbarlari hamkorligida boradigan faoliyatini nazarda tutadi. Bu faoliyat qanday qanday shakllarda namoyon bo'lishi, tegishli o'qish metodlari va uslublari vositasida amalga oshiriladi. Odatda bu metod va uslublar pedagogik amaliyotning mazmuni va maqsadiga qarab, talabalarning tayyorgarlik darajasi hisobga olingan holda tanlanadi.

Bir qator pedagogik oliy o'quv yurtlarining biologiyadan pedagogik amaliyot o'tkazish sohalardagi tajribalarni o'rganish va tahlil qilish, talabalarni pedagogik kasbga o'rgatishning metod va uslublarini belgilash va ularni ta'riflashga imkon beradi.

Talabalarni maktabdagagi ta'lif tarbiya ishlarini bajarishni o'rgatishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

1. Amaliyotchi talabalarning maktabda ta'lif tarbiya ishlarini kuzatishlari;
2. Amaliyotchi talabalarning ta'lif tarbiya ishlarini o'tkazishga tayyorlanishi va ularni amalga oshirish bo'yicha mashq qilishlari;
3. Amaliyotchi talabalar bilan suhbat konsultatsiyalar o'tkazish;
4. Ta'lif tarbiya masalalarini muhokama qilish.

Pedagogik amaliyotda bu metodlar muayyan tizimda va o'zaro bog'lanishda qo'llaniladi, ular bir-birini to'ldiradi. Shunisi xarakterlikni,

sanab o‘tilgan metodlarning har biri tegishli uslublar vositasida qo‘llaniladi.

### **3.1-§. Amaliyotchi talabalarning mакtabda ta’lim tarbiya ishlарini kuzatishлari**

Kuzatish psixologik jihatdan qaraganda bu o‘rab olgan borliqni ma’lum darajada bilib olishdir, u o‘sha idrok qilish obyektida borayotgan hodisa yoki o‘zgarishni payqab olishga imkon beradi. Kuzatish har bir kuzatuvchining o‘rganilayotgan fakt, hodisa yoki xususiyatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni payqab olib, ularni guruhlashtirish imkonи bo‘lganda kuzatilayotgan jarayon yoki hodisalarning qanday sharoitlarga bog‘liq ekanligini, aniqlay olish usullariga ega bo‘lishini nazarda tutadi. Kuzatish tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgan idrok etishdir.

Fanda kuzatish ilmiy tadqiqot metodi sifatida keng qo‘llaniladi. Ammo kuzatish o‘qitish metodi sifatida g‘oyat muhimdir. Kuzatish umum ta’lim maktablari va oliy o‘quv yurtlarida tabiiy shakldagi fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladi. Shuningdek kuzatish o‘qitish metodi sifatida talabalarni ham pedagogik kasbga o‘rgatishda katta ahamiyatga ega.

Pedagogik amaliyotda qo‘llaniladigan metodlar sistemasida kuzatish talabalarni pedagogik kasbga o‘rgatishning dastlabki bosqichidir. Maktab hayotining turli tomonlarini kuzatish asosida talabalar mutaxassislik predmetlarini o‘qitish xususiyatlari, metod va uslublari, o‘quvchilarning bilim, amaliy va o‘quv ko‘nikmalarini o‘zlashtirish sharoitlari, darslarda xilma-xil o‘quv kurslaridan foydalanish yo‘llari, darsdan va sinfdan tashqari ishlarning shakllari va metodlari to‘g‘risida aniq tasavvurlar hosil qiladilar.

Ko‘p yillik tajriba shuni ko‘rsatadiki o‘quv metodi sifatida kuzatishning samaradorligi bir qator sharoitlarga bog‘liq. Avvalo pedagogik amaliyotda kuzatiladigan ta’lim tarbiya ishlari va obyektlar ularni kuzatish izchilligi oldindan belgilangan bo‘lishi kerak. Talabalar esa kuzatish olib borishga tegishli ravishda tayyorlangan bo‘lishlari lozim. Bu o‘rinda har bir o‘tkaziladigan kuzatish haqida talabalarga aniq

topshiriqlar berilishi zarur. Kuzatuvchi nimani kuzatishi, nima uchun bu hodisa yoki obyekt kuzatish uchun tanlab olinganligini yaxshi tasavvur etmog‘i lozim. Har bir kuzatuvchining doirasi ma’lum darajada chegaralangan bo‘lsin. Bir kuzatish bilan ta’lim-tarbiya jarayonining hamma tomonlarini qamrab olish yaxshi natija bermaydi. Bunda e’tibor uncha ahamiyati bo‘lmagan “ikir-chikirlar” bilan band bo‘lib, jarayonining muhim tomonlari chetda qoladi.

Biologiyadan pedagogik amaliyot o‘tkazish tajribasida navbatdagi ta’lim tarbiya jarayoni kuzatishning qulay usslublari tizimi qaror topgan. Bu tizimga quyidagilar kiradi:

1. Biologiya darslarini kuzatish: a) o‘qituvchining biologiya darslarini kuzatish b) talabalarning biologiya darslarini kuzatish;
2. Biologiya bo‘yicha darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni kuzatish: a) o‘qituvchining darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarini kuzatish; b) talabalarning darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarini kuzatish;
3. Biologiya bo‘yicha maktab miqyosida o‘tkaziladigan tadbirlarni kuzatish;
4. Biologiya o‘qitishning moddiy-texnik bazasini va undan ta’lim-tarbiya maqsadida foydalanishlarini kuzatish: a) biologiya kabineti va undan ta’lim-tarbiya maqsadida foydalanishlarini kuzatish; b) tirik tabiat burchagi va undan ta’lim-tarbiya maqsadida foydalanishlarini kuzatish; c) o‘quv tajriba uchastkasi va undan ta’lim-tarbiya maqsadida foydalanishlarini kuzatish.

### **3.2-§. Amaliyotchi talabalarning ta’lim-tarbiya ishlarini o‘tkazishga tayyorlanish va ularni amalga oshirish uchun mashqlanishi**

Mashq bu biron bir harakat yoki ishni (aqliy yoki jismoniy), uni egallash va sifatini ko‘tarish maqsadida ataylab ko‘p marta takrorlanishidir. Mashq qilish pedagogik amaliyot metodlari tizimida muhim o‘rin egallaydi va talabalarning o‘qituvchilik kasbini egallashlari uchun asosiy zamin hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya ishlarini bajarish

bo‘yicha rejali va maqsadga yo‘nalgan holda uyushtirilgan mashqlar oqibatida talabalar tegishli pedagogik o‘quv ko‘nikmalar hosil qiladilar. Mashqning ahamiyati talabalarning pedagogik amaliyot boshlanishidagi va oxiridagi pedagogik o‘quv va ko‘nikmalari darajasini taqqoslaganda amalda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Chunonchi, pedagogik amaliyot davomida talaba amaliyotchilarga dars reja-konspektini to‘g‘ri tuza olish uchun tobora ortib borishi tadqiqotlarimizda ko‘p marta tasdiqlangan. Shuningdek, amaliyot davomida mashq qilish tufayli talabalarning har qaysi darsga tayyorlanishi uchun sarflangan vaqt miqdori tobora kamayib borganligi aniqlangan. Pedagogik amaliyotda o‘qitish metodi sifatida mashq qilishni keng qo‘llanish sababi ham shunda.

Pedagogik mashqlanish samaradorligi ko‘p jihatdan uni o‘qitish metodikasiga bog‘liq. Mashq qilish ma‘lum talablarga javob berishi kerak. Jumladan, mashq qiluvchi shu ta’lim tarbiya ishini yanada sifatiroq bajarishga safarbar qilingan bo‘lishi, yo‘l qo‘yilgan xatoliklar sababini aniqlab olishi va uni bartaraf qilish choralarini topa olishi kerak. Mashq qilishni uyuştirishda pedagogik amaliyotga beradigan yo‘l yo‘rig‘i va konsultatsiyalari muhim ahamiyatga ega. Mashq qiluvchining bu yo‘l yo‘rig‘ga o‘z o‘zini nazorat qilgan holda amal qilish g‘oyat samarali natija beradi. Nihoyat mashq qilishning muvaffaqiyatli chiqishida uni oddiy va oson ishlardan boshlab asta sekin murakkablashib borishi ham juda muhimdir.

Biologiya mutaxassisligi uchun talabalarni pedagogik kasbga o‘rgatishning quyidagi uslublari qo‘llaniladi:

**1.** Ta’lim-tarbiya ishlarini rejorashtirish bo‘yicha mashqlar:  
a) biologiyada choraklik va tematik rejalar tuzish bo‘yicha mashqlar; b) biologiya uchun reja-konspekt tuzish bo‘yicha mashqlar; c) biologiyada sinfdan va darsdan tashqari mashg‘ulotlar uchun reja-konspekt tuzish bo‘yicha mashqlar;

**2.** Biologiya darslari uchun kerakli jihozlarni tayyorlash uchun mashqlar: a) demonstratsiya jihozlari tayyorlash uchun mashqlar;

b) laboratoriya mashg‘ulotlari jihozlarini tayyorlash uchun mashqlar; c) ekskursiya jihozlarini tayyorlash uchun mashqlar;

**3.** Har xil tipdagи biologiya darslari uchun mashqlar:  
a) demonstratsiya ishlarini o‘z ichiga olgan darslar o‘tish bo‘yicha mashqlar; b) laboratoriya mashg‘ulotlari o‘tish uchun mashqlar;  
c) mакtab o‘quv-tajriba uchastkasida o‘qitiladigan darslarni o‘tish bo‘yicha mashqlar;

**4.** Biologiyadan darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun mashqlar: a) tirik tabiat burchagida, o‘quv-tajriba uchastkasida, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda va tabiatda o‘quvchilarining tabiatshunoslik ishlarini uyuştirish bo‘yicha mashqlar; b) biologiyada ekskursiyalar o‘tkazish bo‘yicha mashqlar; c) biologiyada maktab miqyosida ommaviy tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha mashqlar va boshqalar;

**5.** Biologiya bo‘yicha kuzatilgan ta’lim tarbiya ishlarini tahlil qilish bo‘yicha mashqlar: a) kuzatilgan ta’lim-tarbiya ishi to‘g‘risida o‘z fikrini bayon qilish bo‘yicha mashqlar; b) kuzatilgan ta’lim-tarbiya ishini qanday borganligini ta’riflab yozish va bu haqda o‘z fikrini yozma ifodalash bo‘yicha mashqlar. Pedagogik amaliyot to‘g‘risida hisobot hujjatlarini tuzish bo‘yicha mashqlar.

### **3.3-§. Amaliyotchi talabalar maktab o‘quvchilariga “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” ning mazmun va mohiyatini tushuntirish va ko‘nikmalarni shakllantirish**

Har bir davlatning o‘z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablari va hayotiy tamoyillari bo‘ladi. Tabiiyki, bularning barchasini shakllantirish va rivojlantirishga ularga alohida ma’no-mazmun bag‘ishlashga, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo‘nalishlarini belgilab beradigan ulkan tarixiy voqealar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish

bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni xalqimiz tomonidan mammuniyat bilan kutib olindi. Unda yaqin besh yillikda mamlakatimiz zabit etishi nazarda tutilgan ulkan dovonlar, xalqimiz hayot darajasini yuksaltirishning mexanizmlari aniq belgilab berilgan.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat ekanligini mакtab o'quvchilariga tushuntirish zarur.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston o'zining boy tarixiga tayanib porloq istiqbolini qurayotgan davlat, hamjihat xalq, eng tez rivojlanayotgan mamlakat sifatida dunyoga tanildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan, hayotga tatbiq etilayotgan izchil islohotlar, amaliy sa'y-harakatlar yangi taraqqiyot marralarini egallah, zamon shiddatiga mos tarzda rivojlanish, xalqimiz manfaatlarini ta'minlashga qaratilgani bilan g'oyat ahamiyatli ekanligini amaliyotchi talabalar tomonidan targ'ibot qilinishi va mакtab o'quvchilarida ko'nikmalar shakllantirishlari kerak.

Pedagogik amaliyotchilari Davlatimiz rahbarining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni mamlakatimiz hayotida katta voqelik bo'lganligi, Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilab bergen mazkur hujjatda qayd etilgan har bir vazifa shu zaminda yashayotgan, ertangi kunga qat'iy ishonch bilan qarayotgan har bir inson hayoti bilan chambarchas bog'liqligi, Harakatlar strategiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan keng jamoatchilik, ishbilarmon doiralar, davlat organlari vakillarining uchrashuvlari, xalq bilan muloqotlar chog'ida bildirilgan mamlakatimizni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar

rivojlantirishning konseptual masalalari kiritilganini maktab o'quvchilariga yetkaza berishlari kerak.

Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi tasdiqlanishi uni hayotga tatbiq etish samaradorligini oshiradi. Shu jihatdan Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshiriladigan Davlat dasturida davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Buning tub mohiyatida xalqqa har tomonlama qulaylik yaratish mujassam. Faoliyati aholi bilan ishslash, uning manfaatlarini ta'minlash bo'lgan tuzilmalar yanada takomillashtiriladi. Bu jarayonda davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi sifatini tubdan yaxshilash, siyosiy partiylar rolini kuchaytirish kutilgan natijaga erishishda zarur vosita bo'lishi shubhasiz ekanligini pedagogik amaliyotchilar tushunishlari zarur.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan. o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Amaliyotchi talabalar mazkur yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'lilmardan iborat ekanligini tushunishlari va amaliyot davrida tushuntira bilishlari kerak.

### **3.4-§. Amaliyotchi talabalar pedagogik amaliyot davrida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni targ'ib qilish va kitobxonlik kechalarini o'tkazish**

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbusga ko'ra yoshlarni munosib ravishda kamolga yetkazish uchun ularni madaniyat va san'atga, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, kompyuter texnologiyalari hamda internetdan samarali foydalanishlariga imkoniyatlar yaratish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, har bir hududga badiiy, tarixiy, ilmiy, ommabop mavzulardagi kitoblar yetkazib berish, qizlarni tikuv-trikotaj va boshqa xayrli ishlar bilan band etish zarur.

Yurtboshimiz ilgari surgan besh tashabbusni to'la amalga oshirishni barcha yurtdoshlarimiz qatorida amaliyotchi talabalar o'z zimmalariga olishlari zarur. Bugun o'zini jamiyat taraqqiyoti uchun burchliman, degan inson uyg'onmasa bo'lmaydi! Uyg'oqlik – jamiyat hayotiga befarq bo'lmaslik, loqayd yashamaslik demakdir! Bu borada qilishimiz zarur bo'lgan ishlarimiz ko'p. Bugun kimdandir ko'rsatma kutib o'tiradigan davr o'tdi. Har bir amaliyotchi talaba qalb amri ila o'zi harakat qilmog'i zarur. Davlatimiz rahbarining "Ziyo nuri – oliygohdan boshlanadi" degan so'zlarini o'zimizga shior qilib olishimiz darkor. Pedagogik amaliyotchilar ham 5 besh tashabbus asosida o'z rejalarini ishlab chiqishlari kerak. Bugundan e'tiboran tumanlardagi mahallalar, maktablar va boshqa muassasalar bilan hamkorlikda ishga kirishishlari lozim. Joylarda 5 tashabbus mazmun-mohiyatini tushuntirish barobarida uni amalga oshirishga o'z hissalarini qo'shmaqlari zarur.

Talabalar mакtab o'quvchilari bilan mashg'ulotlarni ana shu 5 tashabbus asosida amalga oshiradilar. Birinchi galda o'quvchilar madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilinadi. Kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishga o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchilar eng avvalo savodxon bo'lmoqlari, to'g'ri fikrlab, bexato yozishga o'r ganmoqlari zarur. Har bir mакtabda, oromgohlarda tashkil etilgan kutubxonalarda tez-tez "Kitobxonlik soatlari" tashkil

